Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 32

SIYOSIY PARTIYALAR FAOLIYATIDA INSON QADRI TAMOYILI: IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL

Maxbubaxon Raxmonaliyevna Sodiqova*
Farg‘ona davlat universiteti, milliy g‘oya kafedrasi o‘qituvchisi
✉ sodikovamax@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada siyosiy partiyalarning inson qadrini ta’minlashdagi o‘rni ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Inson qadri tushunchasining mazmuni, uning demokratik jamiyat va fuqarolik institutlari faoliyatidagi ahamiyati ochib beriladi. Siyosiy partiyalarning fuqarolar manfaatlarini ifodalash, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlarni ta’minlash, davlat boshqaruvida fuqarolarning siyosiy ishtirokini kengaytirishdagi vazifalari tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalarning dasturiy maqsadlari inson qadri mezoni asosida qiyosiy o‘rganilib, ularning inson manfaatlarini siyosiy jarayonlarga olib kirish imkoniyatlari baholanadi. Maqolada siyosiy partiyalar faoliyatini inson qadri mezoni asosida baholashning mualliflik yondashuvi ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar

inson qadri, siyosiy partiya, fuqarolik jamiyati, siyosiy vakillik, inson huquqlari, ijtimoiy adolat, tenglik, siyosiy faollik, demokratik qadriyatlar, fuqarolar manfaatlari.

DOI: 10.5281/zenodo.23279205

Kirish

Bugungi kunda demokratik jamiyat taraqqiyotining asosiy mezonlaridan biri insonning huquq va erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini ta’minlash hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyotining mazmunini faqat iqtisodiy o‘sish yoki siyosiy institutlarning rivojlanishi bilangina baholab bo‘lmaydi. Har qanday siyosiy va ijtimoiy jarayonning pirovard natijasi insonning munosib hayot kechirishi, o‘z salohiyatini erkin ro‘yobga chiqarishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan belgilanadi.

Shu nuqtayi nazardan siyosiy partiyalarning jamiyatdagi o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki siyosiy partiyalar turli ijtimoiy qatlam va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalash hamda ularning manfaatlarini davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatiga olib kirish imkonini beruvchi muhim demokratik institutdir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining

74-moddasida siyosiy partiyalar turli ijtimoiy tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalashi hamda demokratik yo‘l bilan saylangan vakillari orqali davlat hokimiyatini shakllantirishda ishtirok etishi belgilangan.

Demak, siyosiy partiyalarning inson qadri masalasidagi o‘rnini o‘rganish faqat partiyalar dasturlarida “inson”, “huquq”, “erkinlik”, “farovonlik” kabi tushunchalarning mavjudligini aniqlash bilan cheklanmasligi kerak. Muhimi, ushbu qadriyatlarning real siyosiy faoliyat, qonunchilik tashabbuslari, parlament nazorati, saylovchilar bilan muloqot va fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarida qanday namoyon bo‘lishini tahlil qilishdir.

Demokratik institutlar – jamiyat hayotida demokratik tamoyillarni qaror toptirishga xizmat qiladigan tashkilot va tuzilmalar majmui. Tarixiy jihatdan ularni shartli ravishda demokratik mazmunga ega bo‘lgan an’anaviy ijtimoiy-siyosiy institutlar (davlat, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, OAV) hamda faqat demokratik jamiyat sharoitida faoliyat yuritadigan maxsus institutlarga, masalan, inson huquqlariga amal

qilinishini ta’minlovchi turli nodavlat tuzilmalarga ajratish mumkin. Demokratik jamiyatda davlat hokimiyati o‘zining asosiy tarmoqlari – qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud organlariga ajratilgan holda amal qiladi. Oliy qonun chiqaruvchi organ umumdavlat miqyosida qonunlar chiqarish huquqiga ega. Qonun chiqaruvchi hokimiyat doirasida hokimiyatning barcha tarmoqlari mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsatadi. Ular bir-birini qisman to‘ldirib va tenglashtirib turadi. Ijroiya hokimiyati qonun chiqaruvchi va sud idoralari tomonidan nazorat qilinadi. Ayni vaqtda ijroiya hokimiyati qonunlarning amal qilinishini ta’minlaydi. Sud zimmasiga esa qonunlarning Konstitutsiyaga mos kelishini nazorat qilish, jamiyat a’zolari va tashkilotlar tomonidan unga rioya etilishini ta’minlash yuklanadi. Bu jarayonda keng vakolatlar doirasiga ega bo‘lgan o‘z-o‘zini boshqarishning mahalliy idoralari ham muhim o‘rin tutadi.

Jamiyatning eng faol va uyushgan qismini, uning ijtimoiy qatlam va guruhlar manfaatlarini himoya qiluvchi siyosiy partiyalar demokratik jamiyatning muhim instituti hisoblanadi. Siyosiy partiyalar - jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlarning siyosiy manfaatlarini ifodalovchi, hokimiyatni shakllantirish va davlat siyosatiga ta’sir ko‘rsatishga intiluvchi siyosiy institutlardir. Bugungi kunda O‘zbekistonda 5 ta siyosiy partiya ish olib boradi hamda ularning faoliyati quyidagilardan iborat.

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi (XDP) - ijtimoiy himoya, aholining ehtiyojmand qatlamlari manfaatlarini ta’m inlash va ijtimoiy yo‘naltirilgan siyosatni qo‘llab-quvvatlaydi. (1991-yilda tashkil topgan.)

O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi - milliy qadriyatlar, tarixiy meros, ma’naviyat va milliy manfaatlarni ilgari suradi. (1995-yilda tashkil topgan.)

O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi - ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi va fuqarolarning huquqiy manfaatlarini himoya qilishga urg‘u beradi. (1995-yilda tashkil topgan.)

O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (O‘zLiDeP) - tadbirkorlik, xususiy mulk va iqtisodiy faollik manfaatlariga ko‘proq e’tibor qaratadi. (2003-yilda tashkil topgan.)

O‘zbekiston Ekologik partiyasi - ekologik xavfsizlik, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish masalalariga e’tibor qaratadi. (2019-yilda tashkil topgan.)

O‘zbekistondagi siyosiy partiyalar faoliyatining inson qadrini ta’minlash nuqtayi nazaridan qiyosiy tahlili

(1-ilova)

Siyosiy partiya	Asosiy yo‘nalishi	Inson qadri bilan bog‘liq ustuvor vazifalari	Amaliy faoliyatining asosiy ko‘rinishlari	Inson qadrini ta’minlashdagi institutsional ahamiyati
O‘zbekiston Liberal Demokratik Partiyasi	Tadbirkorlik, xususiy mulk, bozor iqtisodiyoti, iqtisodiy erkinlik	Insonning iqtisodiy faolligi, mulkiy huquqi, munosib mehnat qilishi va farovonligini ta’minlash	Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, biznes muhitini yaxshilash, iqtisodiy tashabbuslarni ilgari surish, parlament va mahalliy kengashlar orqali manfaatlarni ifodalash	Insonni iqtisodiy jarayonlarning faol subyekti sifatida namoyon etish va uning iqtisodiy mustaqilligini kengaytirishga xizmat qiladi
“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi	Milliy qadriyatlar, tarixiy-madaniy meros, milliy manfaatlar	Insonning milliy va madaniy o‘zligini saqlash, ma’naviy qadriyatlarini rivojlantirish, vatanparvarlikni kuchaytirish	Milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish, madaniy merosni asrash, ta’lim va ma’naviy-tarbiyaviy yo‘nalishdagi tashabbuslarni ilgari surish	Inson qadrining ma’naviy-madaniy komponentini mustahkamlashga xizmat qiladi

Siyosiy partiya	Asosiy yo‘nalishi	Inson qadri bilan bog‘liq ustuvor vazifalari	Amaliy faoliyatining asosiy ko‘rinishlari	Inson qadrini ta’minlashdagi institutsional ahamiyati
“Adolat” sotsial demokratik partiyasi	Respublikadagi islohotlarni jadallashtirish huquqiy-demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish, ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirish	Aholining kam ta’minlangan ehtiyojmand qatlamlari uchun zarur ijtimoiy muhofazani taminlashga munosib hissa qo‘shishdan iborat.	Qonunchilik tashabbuslari, huquqiy madaniyatni oshirish, ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligi masalalarini ilgari surish	Inson qadrining huquqiy va adolat tamoyiliga asoslangan jihatini ta’minlashda muhim siyosiy institut hisoblanadi
O‘zbekiston XDP	Ijtimoiy himoya, ijtimoiy adolat va tenglik	Kam ta’minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarning manfaatlarini himoya qilish, teng imkoniyatlarni ta’minlash	Ijtimoiy himoya masalalarini parlament kun tartibiga olib chiqish, aholining ehtiyojmand qatlamlari manfaatlarini ifodalash	Inson qadrining ijtimoiy himoya va tenglik komponentini ta’minlashga yo‘naltiriladi
O‘zbekiston Ekologik partiyasi	Ekologik xavfsizlik, atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror rivojlanish	Fuqarolarning qulay va xavfsiz atrof-muhitga bo‘lgan huquqini ta’minlash hamda ekologik xavfsizlikni mustahkamlash;	Ekologik qonunchilikni takomillashtirish, suv va tabiiy resurslarni muhofaza qilish, ekologik muammolarni siyosiy kun tartibiga olib chiqish	Inson qadrining ekologik va xavfsiz hayot muhiti bilan bog‘liq jihatini ta’minlaydi

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalarning inson qadrini ta’minlashga oid yondashuvlari mazmunan bir-biridan farqlansa-da, ularni umumiy maqsad - fuqarolarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va ekologik manfaatlarini ifodalash hamda ularni davlat siyosati va qarorlar qabul qilish jarayoniga olib kirish birlashtiradi. Saylovlar siyosiy partiyalar raqobatini, ularning hukumat tizimiga ta’siri va o‘rnini aniqlab beruvchi bosh maydon hisoblanadi. Siyosiy partiyalar demokratiya sharoitida jamiyatdagi xilma-xil qarashlarning namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi. Ko‘p partiyali tizim sharoitida demokratik institutlarning muhim qismi bo‘lgan siyosiy oppozitsiyaning mavjudligi ta’minlanadi. Ijtimoiy harakat va tashkilotlar (ijodiy uyushmalar, yoshlar tashkilotlari, xayriya jamg‘armalari kabi) demokratik jamiyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu tashkilot va birlashmalar turli ijtimoiy guruhlarning xilma-xil manfaatlarini ifoda etadi, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini ta’minlaydi. Ular o‘zlarining real mavqeidan kelib chiqqan holda davlat va jamoat ishlarida, ijtimoiy-siyosiy muammolarni yechishda ishtirok etadi.

Bizningcha, siyosiy partiyalar faoliyatida inson qadri masalasi demokratik jamiyatning muhim mezonlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki siyosiy partiyalarning asosiy vazifasi nafaqat muayyan siyosiy manfaatlarni ifodalash, balki fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularning jamiyat va davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta’minlash hamda ijtimoiy manfaatlarini siyosiy qarorlar jarayoniga olib kirishdan iboratdir. Shu jihatdan siyosiy partiyalar faoliyatining inson manfaatlari, huquq va erkinliklari hamda munosib hayot sharoitlarini ta’minlashga yo‘naltirilganligi inson qadrini yuksaltirishning muhim institutsional omili hisoblanadi.

Siyosiy partiyalarning saylovoldi dasturlari, qonunchilik tashabbuslari, parlament va mahalliy vakillik organlaridagi faoliyati, shuningdek, fuqarolar murojaatlari bilan ishlashi orqali inson manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan mexanizmlar shakllanadi. Ayniqsa, aholining turli ijtimoiy qatlamlari manfaatlarini ifodalash, ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlarni ta’minlash, fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish hamda davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish siyosiy partiyalarning inson qadrini ta’minlashdagi amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Shuningdek, siyosiy partiyalar faoliyatini inson qadri nuqtayi nazaridan baholashda ularning faqat saylov jarayonidagi ishtirokini emas, balki fuqarolarning real manfaatlarini qay darajada ifodalashi, ularning siyosiy va ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlashi hamda davlat qarorlarini qabul qilish jarayonida fuqarolar ovozining inobatga olinishiga qanday hissa qo‘shayotganini tahlil qilish muhimdir.

Xulosa

Demak, siyosiy partiyalarning inson qadrini ta’minlashdagi o‘rnini uch asosiy yo‘nalishda ko‘rish mumkin: birinchidan, fuqarolarning huquq va manfaatlarini siyosiy jihatdan ifodalash; ikkinchidan, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish; uchinchidan, inson manfaatlariga yo‘naltirilgan ijtimoiy-siyosiy qarorlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatish. Demak, siyosiy partiyalar faoliyatining mazmuni va samaradorligini inson qadri mezoni asosida baholash demokratik institutlarning jamiyatdagi haqiqiy funksional ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, siyosiy partiyalar faoliyatini inson qadri mezoni asosida takomillashtirish fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, siyosiy vakillik sifatini oshirish, davlat va fuqaro o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlash hamda demokratik qadriyatlarni yanada qaror toptirishning muhim shartlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining 1996-yildagi 337-I-sonli “Siyosiy partiyalar to'g'risida”gi Qonuni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. – Toshkent: O‘zbekiston, 2024. – B. 430.
4. O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi. “Xalq bilan birga” dasturi konsepsiyasi. 2026.
5. O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi. Saylovoldi dasturi. 2024.
6. Nasimov O. Ko‘ppartiyaviylik tizimi fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim institutsional asosi sifatida // O‘zMU xabarlari. – 2024.
7. https://uzprogress.narod.ru/Partiyalar.htm
8. https://parliament.gov.uz/fractions/3
9. https://saylov.uz/oz/for_candidates/political_party/o-zbekiston-adolat-sotsial-demokratik-partiyasi
10. https://www.uzlidep.uz/leads/tadbirkorlar-va-ishbilarm
11. https://ecouz.uz/history